Интересная деталь: изучая исторические махалли Ташкента, сверяясь со старинными картами, установили, что их архитектура изменилась не сильно. Некоторые участки стали меньше, но основная структура осталась прежней. Подобная неизменность впечатляет.

Экспозиция Национального павильона Узбекистана продумана таким образом, чтобы познакомить посетителей с разными аспектами жизни махалли. Гости словно попадают в старинный ташкентский дом, могут услышать звуки, которыми он наполнен. Для тех, кто захочет детальнее изучить структуру жилого помещения, разработано специальное мобильное приложение: позволяет рассмотреть пространство реальных домов в виде виртуального трехмерного изображения. Путешествие во времени и пространство – вот что такое проект «Махалля: урбанистическая и провинциальная жизнь».



## Сорок важных слов

Лазиза ТУЛЯГАНОВА, участник лаборатории SS Lab при Центре современного искусства:

– Я участвовала в создании фэнзина «Махалля 40» – журнала, где в четырех десятках слов описывается культурное богатство, которым обладают современные махалли. Фэнзин могут бесплатно получить все посетители Национального павильона Узбекистана. При подготовке проекта проведена большая аналитическая работа, я ближе познакомилась с родным городом, взглянула на него с нового ракурса. Погрузилась в историю Ташкента, его жителей. Слова, включенные в фэнзин, отражают уникальный пласт культуры, который обязательно нужно сохранить. Они близки и знакомы всем, кто хотя бы раз спал на топчане под открытым небом, складывал курпачи, заваривал чай, играл в ашички, наслаждался ароматом базилика и слышал звуки карная-сурная.

А еще во время работы над журналом я рисовала. Так родился художественный цикл «Лик уходящего города» – тридцать «портретов» улиц старгородской части Ташкента. Очень надеюсь, что цветные улочки, резные старинные двери, уютные чайханы мы сможем видеть не только на картинах и фотографиях. Это не только наше прошлое и настоящее, но и будущее.



# Hiroat

# yo'llarida...

**Tosh ko'chada bir maromda ketib borayotgan otning tuyuq tovushi qulog'imga eshitiladi. Taqaning tovushi tobora uzoqlashib boraveradi. Shu payt qayerdandir muazzinning azon aytgani eshitiladi. Ot uzoqlashib borgani sari azon tovushi yanada yaqinroq va aniq eshitila boshlaydi. Shu payt o'zimni boyagi ot ustida ko'raman, ro'paramda esa ming yilliklardan guvohlik berayotgan maqbara. Ayni dam kimdir xayolimni bo'lib, xitob etadi: "Mana shu Alisher Navoiy maqbarasi bo'lsa kerak?!"**


— Mehmonga o'xshaysizlar, — deydi shu dam yonimdan o'tib ketayotgan kishi tonggi g'ira-shirada bizni tanib olish ilinjida yaqin kelib. — Hazrat Navoiyning makonlarigacha yana uch kunlik yo'l bor. Bu maqbara...

U shunday deya biz tanimaydigan qandaydir ulug' zotning nomini zo'r ixlos bilan tilga oladi. Shu payt azon aytayotgan muazzin bir soniya tin olib tag'in chaqiriqni boshidan boshlashi hamon birdan hushyor tortaman. Qulog'imga hamon o'sha chaqiriq eshitiladi. Ammo endi uni boshqa kishi — otam aytayapti. Shundoqqina men yotgan xona eshigining yonginasida. Derazadan tongning yoqimli shabadasi kirmoqda.

Hali ko'rgan tushimni to'la idrok etishga ulgurmay beixtiyor telefonimni qo'lga olaman. Tuni bilan uning interneti yoniq qolgan va mitti ekranda yuzlab xabarlar qalashib ketgandi. Ularni birma-bir ko'zdan kechiraman: "YTH oqibatida...", "Ayol bolalarini olib ketgani..." va nihoyat, "Tolibon..."

Hali ko'zimni ochib ulgurmay qo'shni Afg'onistonda bo'layotgan hodisalar haqida o'qiy boshlayman. Qayerdandir bir video tasvir paydo bo'ladi. Kamera ortida turgan ayollar mahzun, dilni o'rtaydigan ohangda xonish qiladi. Aeroportning uchish yo'lagida aytilgan bu qo'shiqning so'zlari menga qanchalik begona bo'lsa, undagi dard, iztirob shunchalik ko'ngliga yaqin — dilni o'rtaydi!

AQSh qo'shinlarini olib chiqib ketishi ortidan Afg'onistondagi ichki nizolari shiddatli tus oldi. Tolibon harakati boshqaruvni qo'lga oldi. Afg'oniston, asosan Kobul aholisi bundan sarosima-ga tushib, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham xorijga chiqib ketish



haqida qayg'urmoqda. Nega?!

Axir Tolibon muqaddas dinimiz arkonlari asosida davlat qurmoqchi. Afg'onistonning aholisi esa musulmonlardan iborat. Shunday ekan tinch aholi Tolibondan qo'rishiga asos bormi? Boz ustiga ular tinchlik tarafdori ekanligini, hech kimga zarar keltirmasligini bot-bot takrorlamoqda!

Tarqatlayotgan xabarlarni tahliil qiladigan bo'lsak, yangi hukumatdan qo'rqib qochayotganlarining aksariyati Yevropa va Amerika davlatlari bilan hamkorlik qilgan shaxslardir. Xabarlarga ko'ra Tolibon jangarilari NATO kuchlari bilan hamkorlik qilgan

ta'kidlagan ushbu harakatning hukumat tepasiga kelishi ortidan yangi ziddiyatlar vujudga kelmoqda. Xususan, keyingi kunlarda Kobul xalqaro aeroporti atrofi vatanini tark etmoqchi bo'lgan afg'onistonliklar bilan to'lib ketdi. Eng dahshatlisi, ana shu to'plangan odamlarning portlatilishi bo'ldi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra portlash oqibatida yuzlab insonlar jarohat olgan, ellik nafarga yaqin kishi hayot bilan vidolashgan. Bu qariyb yarim asrdan buyon urush o'chog'iga aylanib qolgan Afg'onistondagi ziddiyatlarning avj nutqaga chiqishi xavfini yanada oshirdi. Chunki




yo'ki Afg'onistonning oldingi hukumatida ishlagan odamlarni izlamoqda. Shuningdek, G'arb nashrlari bilan hamkorlik qilgan shaxslarga va ularning oila a'zolariga hujumlar qilgani haqida ma'lumotlar bor.

Buning ortidan ayrim mamlakatlar afg'onistonlik qochoqlarini evakuatsiya qilmoqda. Ammo bunga Tolibon qarshilik ko'rsatayotgani haqida ham ma'lumotlar bor. Shu bilan birga Tolibon G'arb davlatlariga Afg'onistondan qurolli kuchlarini 31-avgustga qadar olib chiqib ketish shartini qo'yg'an.

O'lkada tinchlikni ta'minlashni

hujumni ISHID terrorchilik tashkiloti o'z zimmasiga olgan. Shuningdek, ular navbatdagi teraklar bilan tahdid qilgan.

Tolibon bilan yovlashib keladigan mazkur tashkilot terrorchilari Afg'oniston islom amirligini inkor etib, mamlakatda Xuroson davlati tuzishga chaqirgan. Voqealarning bunday rivoj olishi, Tolibon boshqaruvni qo'lga olgan dastlabki kunlardayoq afg'onistonliklarning nima uchun xorijga chiqib ketmoqchi bo'lganiga aniqlik kirita-di. Bundan tashqari, Tolibonga hukumatni shunchaki topshirib qo'ymaslikni bildirgan sobiq hukumat vakillari bor. Xususan, Pan-



jsher viloyatida Ahmad Mas'ud yetakchiligidagi kuchlar Tolibonga qarshi chiqmoqda. Ayni kunlarda ular kelishuvga erishgani haqida aytilayotgan bo'lsa ham, o'rtadagi ziddiyat yumshadi, deb bo'lmaydi. Shu tariqa AQSh qo'shinlarini olib chiqib ketishi fonida Afg'onistonda bir-biriga qarshi bo'lgan uchta kuch to'qnash kelmoqda. Tolibon tinchlikni ta'minlashni qanchalik va'da qilmasin buning uddasidan chiqishi gumon. Negaki, ular insonlarga erkinlik berishni aytgani holda musiqani taqiqlash haqida xabar tarqatdi. Diniy arkonlarni mahkam tutish fonida olib boriladigan bunday qoidalar nizolarni kuchaytiradi.

Vaziyatni tahlil qiladigan bo'lsak, hukumat tepasiga kim kelsa ham Afg'onistonda tinchlikni saqlash mushkul vazifa. Har uchala tomonning o'z qarashlarini mamlakatda tatbiq etish uchun ikkita qarshi kuchni to'la yengib o'tirish kerak. Bu Afg'onistonda tinchlik o'rnatish qanchalik murakkab ekanidan dalolat...

Hozir bularni osongina yozayotgan paytimda bexosdan

yuqoridagi portlash haqidagi xabarlarga ilova qilingan suratlar ko'z oldimga keladi. Ana, boshi va oyog'idan yarador bo'lgan, ust-boshi qonga bo'yalgan erkak biz qum-shag'al tashiydigan bir g'ildirakli aravada yotibdi. Hayoti qil ustida turgan inson qadri o'sha shag'alchalik ham chiqmasligi... bo'g'izimga nimadir tiqilib, achishadi va suratlar aro taqdirarga boqib o'kinaman. Tarmoqdagi do'stlarim orasidan afg'onistonlik o'zbek do'stim Muhammad-hashimga maktub yo'llayman. U biz tinchmiz, deydi. Unga sog'lik-omonlik tilayman-u, tinch ekaniga ishonimga kelmaydi. Axir ko'z o'ngimda uchishga shay samolyotga osilib olgan afg'onistonliklarning video tasviri keladi. Ularni nima shunchalik qo'rqitdi-ki, o'zini muqarrar o'limga hukm etmoqda?! Nega jahonning eng qudratli mamlakatlari jam bo'lib

ham Afg'onistonda tinchlik o'rnatilolmaydi?!

Xayol yaqin o'tmishga yetaklaydi. Qizil askarlar Markaziy Osiyoni egallay boshlagan bir paytda ularga qarshi chiqib bosmachi degan tamg'a olgan bobolarimiz chekinishga majbur bo'ladi. Ana shunda ular Afg'onistonga qochib o'tadi. U yerdan Turkiya, Eron, Arabiston yarimorollari va AQShga yo'l oladi. Bugun dunyoda o'z aytar so'ziga ega bo'lgan ilm-fan sohiblari, katta-katta kompaniyalar rahbarlari orasida ana shu ajdodlarimizning farzandlari ham bor. Ayni kunlarda afg'onistonlik birodarlarimiz O'zbekiston orqali xorijga chiqib ketishga majbur bo'lmoqda. Ular ko'zida yosh bilan vatanni tark etyapti.

Men esa ularni o'ylaganim hamon tosh yo'lakda yurib ketayotgan otning tuyuq tovushini eshitaman. Keyin qayerdandir muazzinning chaqiriq'i eshitiladi. Men esa hamon Hirotni izlab yo'l qarayman...

**Bobo RAVSHAN**

## MAVSUMGA TAYYORGARLIK KO'RILMOQDA

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-apreldagi 207-F-sonli Farmoyishiga asosan Favqulodda vaziyatlar vazirligi, tegishli mu-tasaddi tashkilotlar hamkorligida respublikamizning barcha hududlarida profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.**

Ana shunday tadbirlarni Toshkent shahar Yakkasaroy tumani misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu tadbirlardan asosiy maqsad aholi yashash xonadonlari, ijtimoiy soha obyektlari va tadbirkorlik subyektlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar, yong'inlarning oldini olish, tabiiy va suyuqlirilgan gazdan foydalanishda xavfsizlik qo'llalariga rioya etilishini o'rganish, aholiga gazdan xavfsiz foydalanish borasida zaruriy tavsiyalarni berish, shuningdek aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish orqali qator tadbirlarni amalga oshirishdir.

**Davron KADIROV,**  
Yakkasaroy tumani FVB boshlig'i, podpolkovnik



**OGOHLIK**

...Dunyoni olsam-da jahongir bo'lib,  
Go'dak yig'isiga yo'qdir toqatim...

Abdulla Oripov

O'g'lim...  
Yana kula boshlaganingdan  
xursandman!

Yig'lab chiqqan o'n ke-  
changda onang ikkimiz o'n  
oyga qarigandaymiz.

Buva-momolaring esa o'n  
yilga...

\*\*\*

...o'sha kecha, ayniqsa,  
uxlamading, hisob. Tongga-  
cha mijja qoqmadik. Odatda,  
tungi bedorlikdan tanasi ham  
asablari qattiq toliqqan onang  
subhda yostiqa yiqilib qolardi.

O'rniga men seni qo'llarimda  
ko'targancha, xonada yurib  
turardim. To bilagimga bosh-  
changni qo'yib, uxlab qo'g'u-  
ningcha... Ammo bu subh se-  
ning yig'ing bilan oqardi. Jajji  
boshing qizib ketgan, icking  
o'tib, najasing ko'kish tusga  
kirdi... "Tez yordam"ni cha-  
qirib o'tirmadik — o'tgan safar  
qirg' daqiqada yetib kelgan-  
di. Keyin... menga shu tibbiy  
mashinadagilarning o'zini tuti-  
shi yoqmaydi: ovozlari bal-  
land qo'ygancha, behijolat ha-  
zil-hangoma qilishadi, o'zaro.

Xuddiki, ulovlari salonida og'ir  
ahvoldagi bemor va uning  
g'amdan cho'kkan yaqinlari  
emas — bir qop kartoshkani  
sotishga opketayotgan chay-  
qovchilar o'tirgandek...

Supada bobong (otam) or-  
timizdan yetib borishini aytib  
qoldi. Momong (onam) esa  
hassasini tutgancha, tashvish-  
mand tikilardi. Ochig'i, bobong  
ham borishini juda istagan-  
dim. Bobongning baquvvat,  
qadoq qo'llaridagina xotirjam  
tin olasan, bu uyda. Men, ma-  
salan, eplaba bola ko'tarishni  
bilmayman: yo boshing osilib  
yo beling bukchayib qoladi...

\*\*\*

...har kuni o'n daqiqada  
yayov o'tadigan ko'chamizni  
o'sha kun boshida — seni  
ko'targancha ketarkanman —  
soatlab yurgandek bo'ldim.  
Ichimda birgina xavotir:  
"...yig'lab qolmasa bo'ldi, ish-  
qilib!". Axir seni olib, meh-  
monga, yo emlatish uchun  
poliklinikaga, yo xiyobonga, yo  
bog'chaga... emas — kasal-  
xonaga ketardik. Shusizam  
tez yuraman, lekin o'shanda  
qadamlarim yanayam jadal-  
lashib ketibdi, onang orqada  
qolib ketganini payqamapman  
ham. Ko'cha adog'ida, katta  
yo'l yoqasida qayrilib qara-  
rasam, onang, a-ancha narida,  
qo'llarida liq to'la ikkita sumka,  
ko'zlarida bizda, jon halpida ke-  
lardi... Rahmim keldi. Nimadir  
shirin so'z aylishim keragidi.  
Biroq mutlaqo teskari ohang-  
dagi so'zlar o'tildi, bo'g'zimdand:

\*\*\*

...har kuni o'n daqiqada  
yayov o'tadigan ko'chamizni  
o'sha kun boshida — seni  
ko'targancha ketarkanman —  
soatlab yurgandek bo'ldim.  
Ichimda birgina xavotir:  
"...yig'lab qolmasa bo'ldi, ish-  
qilib!". Axir seni olib, meh-  
monga, yo emlatish uchun  
poliklinikaga, yo xiyobonga, yo  
bog'chaga... emas — kasal-  
xonaga ketardik. Shusizam  
tez yuraman, lekin o'shanda  
qadamlarim yanayam jadal-  
lashib ketibdi, onang orqada  
qolib ketganini payqamapman  
ham. Ko'cha adog'ida, katta  
yo'l yoqasida qayrilib qara-  
rasam, onang, a-ancha narida,  
qo'llarida liq to'la ikkita sumka,  
ko'zlarida bizda, jon halpida ke-  
lardi... Rahmim keldi. Nimadir  
shirin so'z aylishim keragidi.  
Biroq mutlaqo teskari ohang-  
dagi so'zlar o'tildi, bo'g'zimdand:

\*\*\*

...tuman Tibbiyot birlash-  
masining bolalar bo'limi eshi-  
gida ertalabdan odamlar havo  
kabi qaynar edi: chaqaloq  
quchgan kim, bola yetaklagan  
kim... Yo'laklarda mashina-  
lar tizilgan. Bo'lim ostonasidagi  
betartib izdihomga yaqinlashdik:  
oldinda men — noutbuk solingan  
sumka tasmasi to'shimni kesib o'tgan  
(ishgayam borishim kerak,  
halil!), qo'llarimda lash-lush  
to'la yo'laxalta, suvqog'oz; or-  
timda onang — seni mahkam

— ...tez-tez yursangchi-  
yey!

Sen yig'lay boshladig.  
Qanaqa mashina kelayotgan-  
igayam qaramasdan, yoppa-  
siga qo'l ko'tardim...

\*\*\*

...ulov ichida yig'ing  
kuchaydi. Onang laqashiqil-  
doqni axtarib tipirchiladi.  
Tizzamdagi sumkada ekan.  
Olasolib, shiqillata ketdim.  
Yig'idan to'xtab, qaroblaringni  
yumding. Yuz-ko'zlarimizga  
oldan guvillab shamol urilar-  
di — haydovchi ham, yonidagi  
yo'lovchi ayol ham oynalarini  
oxirigacha tushirib qo'yish-  
gandi. Kafti bilan seni shamol-  
dan to'sishga uringan onang  
ularga oynalarini yopishini  
astagina aytdi. Haydovchi  
xiyol ko'tardi. Ayol esa yo'q.  
Salqin yelvizak kuchaygani-  
dan ko'zlarimiz qisilib borardi.

Onang alag'da holda bir sen-  
ga, bir ulovning ochiq oynala-  
riga qararkan, kaftini yuzingga  
yaqinlashtirardi, tobora. Sen  
ham yumuq qovoqlaringni  
yanada qisgancha, yelvizak-  
dan yuzingni o'zginga burishga  
urinariding...

— ...Oynalaringni yopinglar,  
iltimos! Hozir tushganimizdan  
keyin tomini ochib ketinglar,  
menga desa!, — deya baqirib  
yubordim. Ayol darrov to'liq  
yopdi, oynasini. Haydovchi bi-  
roz ochiq qoldirdi... Baqirmoq-  
chi emasdim. Nachora, qulog'i  
yoki qillig'i og'irga shunday ga-  
pirsanggina "yetib boradi"...

\*\*\*

...tuman Tibbiyot birlash-  
masining bolalar bo'limi eshi-  
gida ertalabdan odamlar havo  
kabi qaynar edi: chaqaloq  
quchgan kim, bola yetaklagan  
kim... Yo'laklarda mashina-  
lar tizilgan. Bo'lim ostonasidagi  
betartib izdihomga yaqinlashdik:  
oldinda men — noutbuk solingan  
sumka tasmasi to'shimni kesib o'tgan  
(ishgayam borishim kerak,  
halil!), qo'llarimda lash-lush  
to'la yo'laxalta, suvqog'oz; or-  
timda onang — seni mahkam

\*\*\*

...tuman Tibbiyot birlash-  
masining bolalar bo'limi eshi-  
gida ertalabdan odamlar havo  
kabi qaynar edi: chaqaloq  
quchgan kim, bola yetaklagan  
kim... Yo'laklarda mashina-  
lar tizilgan. Bo'lim ostonasidagi  
betartib izdihomga yaqinlashdik:  
oldinda men — noutbuk solingan  
sumka tasmasi to'shimni kesib o'tgan  
(ishgayam borishim kerak,  
halil!), qo'llarimda lash-lush  
to'la yo'laxalta, suvqog'oz; or-  
timda onang — seni mahkam

quchib olgan. Ko'pi xotinlar  
va bolalardan iborat izdihom-  
ga yovuqlashdik. Bitta-ikkita  
erkaklar ham illosiz qaqqayib  
turardi. Yo'lak eshigini o'rta  
yoshlardagi, oq-sariqdan  
kelgan hamshira asabiy  
ochib-yopardi. Har ochganida,  
bola ko'targan ayollar gurra  
urardi, ichkariga. Navbat-sav-  
bat degan narsani ko'rmagan  
esam-da hamma eshitadigan  
qilib so'z qotdim:

—...bu yerda oxirgi kima-  
kan?

To'planmishlarga bir-bir qar-  
radim. Ular ham menga bir-bir  
qarab qo'ydi, ammo hech bir-  
dan sado chiqmadi. Nimanidir  
o'rinlatmadim, chog'i...

\*\*\*

...sen yana yig'lay boshla-  
ding. Va mendagi toqat tugadi:  
ayollar, bolalar, yo'lak eshigi,  
oq-sariq hamshira... barcha-  
sini chetlatgancha, muzyorar  
kemadai bo'limning bosh vra-  
chi xonasiga kirib bordim. Or-  
timda onang, seni opichlagan  
ko'yi iyargandi. Bosh vrach —  
Pirnazarov qabulida odam bor  
ekan. Sendan sal kattaroq bir  
odamchani obdan tekshirar-  
di. Vrach meni ko'rib, "Hozir"  
ishorasida bosh irg'ab qo'ydi.  
Qarasam, xona bo'sag'asida  
oq-sariq hamshira onang bilan  
seni kutish zaliga itarar, ort-  
laringda boyagi izdihom ahli  
norizo baqirib-chaqirardi. Mu-  
vozanatdan chiqib bo'lganim  
bois ortiq sipolik qilishga xo-  
hish ham, hol ham qolmagan-  
di, menda. Olomon ro'parasiga  
chiqdim. Norizo nigohlar  
yaxlit menga qadaldi. So'ng  
so'zlarni sadoqdan olatasir  
uza ketishdi:

"...biz bir soatdan beri  
kutyapmiz!";

"...boshqalariniyam o'zingiz-  
day biling!";

"...nima haqqingiz bor, bun-  
day qilishga!.."

Oralarida birgina erkak bo-  
rakan. Shunga qarab, borki  
shovurni bosib tushadigan  
pardada gapirdim:

—...navbatning oxiri kimli-  
gini so'raganimda, biroving

bir nima demading-ku, nima  
qilishim keragidi?!

Erkak nimadir deb g'o'ldira-  
di. Ayollar tovushiyam ancha  
bosildi. Oq-sariq hamshira ha-  
nuz bizni yo'lakdan chiqarish  
harakatida edi. Unga-da tik  
qaradim:

—...qani ro'yxat, qani nav-  
bat?!

Hamshira siniq bir ohangda  
bitta gapni qaytarardi: "...meni  
baqirishga majbur qilmang!";

Shunday derdi-yu ko'zla-  
ridagi hadik va ovoqidagi  
siniqlik majburlaganingda  
ham baqira olmasligini aytib  
turardi...

\*\*\*

...Pirnazarov qorinchangni  
ushlab ko'rdi. Onang issig'ing  
borligini, icking tinimsiz keta-  
yotganini, uyqung yo'qligini...  
aytardi, kuyinib. Men esa bir  
gapni qaytarardim, hadeb:

—...o'tgan safar ham Siz  
sabab tuzalib ketgani uchun  
yana opkeldik, Anvar aka!

Vrach o'tirib, dori yozishga  
shaylanarkan, onang ikkimiz-  
ga qarab oldi: "...uyga yozib  
beraymi yo..?";

Onang ikkov lahzalarda kel-  
gan qarorimizni baravar tilga  
ko'chirdik:

—...shu yerga yotqizamiz!  
Lahzalar deyaqman-u... be-  
dorlikda, halovatsiz o'tgan uch  
kecha-kunduz muallaq qot-  
gandi, ko'z ortimizda...

\*\*\*

...o'n beshinchi palataga  
joylashtirishdi. Bo'limning ik-  
kinchi qavatida ekan. Palata-  
da yosh bir kelinchak ham bor  
ekanki, ko'rib, xiyl xotirjam  
tortdim. Axir hademay ishga  
ketaman, onang yolg'izlikda,  
ayniqsa, sen betob bo'lsang,  
qiyinaladi.

Dorixonadan qaytayotib,  
yo'lakda bobongni ko'rdim:  
bo'lim hovlisida, bolalar  
maydonchasining ko'hna  
panjarasiga suyanganacha,  
horg'in turardi. Biroz gaplash-  
dik. Palatadalingni eshitib,  
ko'ngli buzildi. Ikkinchi qavat  
derazalariga qarab-qarab

(Esse)

qo'yardi... Ko'p o'tmay, tarqa-  
ldik: bobong uyga, men ishga,  
deganday...

\*\*\*

...kuniga ikki marta kasal-  
xonaga kirardim: ishga o'tish-  
da bir, ishdan qaytishda bir.  
Borishda ko'taradim ko'pin-  
cha, seni. Ozroq palatada,  
ozroq yo'lakda kechadigan  
"sayr'imizdan yuragimga  
quvvat ingandek bo'lardi.  
Ha, qo'llarim toliqardi, belim  
zirqirardi... ammo ich-ichim-  
dan o'zgacha mador, jiddiy  
bir mas'uliyat qo'pard, qan-  
daydir. Kaftlarimda jajji jonni  
emas, osmonni tutib turardim,  
go'yo.

Ishdan qaytishimda ux-  
layotgan, yo yig'layotgan,  
yo sut ichayotgan, yo bo-  
bong qo'llarida aylani-ib yur-  
gan bo'larding. Oxirgi kunlar  
adog'ida pastga ko'p tushar-  
dinglar: onang, bobong,  
uzoq momong (qaynonam)...  
Shu momongdan ham Alloh  
rozi bo'lsin! Tunlari palata-  
da qolib, onangga qarashar,  
kunduzlariyam hali dori, hali  
ovqat tashirdi. "Tinch-omon  
bo'sanglar bo'ldi!", deb qo'yar-  
di, kulib... Besh kun shunday  
o'tdi...

\*\*\*

...oltinchi kun, shanba pe-  
shinida uzoq momong uyiga  
ketdi: qattiq charchagan, ham  
oilasidan o'yda edi. O'rniga  
men bordim. Shanba-yak-  
shanbam kasalxonada o'tdi,  
shunday qilib. Bu ikki kun  
va tunda ikki qayta dunyoga  
keldim, o'g'lim. O'-o', butun  
tumanning go'daklari shunda  
edil-yov! Bo'lim ostonasi erta-  
labdan ayollar "qiy-chuv"iyu  
bolalar g'ishavasiga to'lar-  
di. Yana barida bir xil ahvol:  
isitma, ich ketish... Qizig'i,  
boshqa viloyatlardagi do'stlar  
ham jujuqlarini kasalxonaga  
yotqizganini, ularni ham isitma,  
ichketar, uyqusizlik qiyayot-  
ganini yozishardi, internetda.

Mamlakatdagi bolalarga yop-pa shamollashmi-nimadir tarqalayotgandi-da, ishqilib. Ammo aynan nima dard, bu?.. Xorijning og'ziga termulib turadigan tibbiyotchilarimiz og'ziga termulishdan naf yo'q, bu borada...

\*\*\*

...tepadagi xonalar qizib ketgani bois Pirmazarov pastgi oshiyonga ko'chirdi, bizni. Chindanam pastgi palatalarda

gunicha, chirillayverib, bo'lari bo'lardi hammasining... Internetda ko'rgandim: allaqaysi davlatda (hozir eslolmadim) bolalarni operatsiya xonasiga o'yinchoq mashinachaga mindirib, ikki chetda tizilgan shifokorlar olqishi ostida olib borisharkan. Toshkentda hayron qolardim: ijarachi bekamiz — tatar kampir, nevaralarini tibbiy tekshiruvga eltarkan, sira aldad-suldamasdi ularni. Nevara'ariyam chopqillab

ko'rganman, axir. "Ha, bular — zahiramiz!", deganidi, bosh hamshira. Hatto, pandemi-yada ham xalqqa berilmasa, qanday "zahira" bo'ldi, u?!

Mirbozorliklar dorixonasi, darhaqiqat, aytishganicha borakan. Berganim qog'oz parchasiga bir qarashdiyu so'rashdi: "...Pirmazarov bugun ham ishga keldimi, yakshanbada-ya?". Tasdiqlashim barobarida hayronligimni ikki hissa oshirgan ikkinchi savol-



# isitma

nisbatan salqin havo boridi. Nafasi bo'g'ilmasdi, odamning. Lekin hammagayam pastda joy yetmagani-chun tepaga ham parraklari opkelardi, "papasha"lar. Ungayam elektr kerak, havo haydab turishiga. Tok uzilgan pallalar hayot ham uzilardi, xuddiki. Dimiqib ketgan ayollar shartta bolalarini olib, hovliga otilardi.

Biz ham hovlidagi daraxtlar panasida jon saqlardik, kunduzlari: qo'limda sen, qabatimda onang, birga-birga kasalxona yo'laklarida borib-kelardik; toliqsak o'rindiqlarda o'tirib, nafas rostlardik; uyqung kelsa, palataga qaytardik... Hammada shu edi, o'zi. Nima bo'lgandayam, bu yer — oromgoh emas! Bunga kelguvchilar, qanchalar sharoit qilib berishmasin, alaloqibatda tezroq shifo topib, uylariga jo'nashni tusashadi, baribir...

\*\*\*

...tunlar. Asablar tegirmondan chiqardi, tonggacha: kasallik, pashshalar, issiq va shovqin — shu to'rtta "tegirmon toshi" ostida maydalanardi, bundagilar boshi. Pastdagi palatamiz Muolaja xonasining biqinidaligi tufayli sutka davomida chinqiriqlarga chidashga majbur edik. Kamiga o'rtadagi devordan tuynukcha ochilgan bo'lib, bolalarning dod-voyi og'izchalaridan qanday chiqsa, shunday quyulardi qulog'imizga. Bolalarni esa opkelishaverardi-opkelishaverardi: tonggi beshdami, tungi uchdami, tik tushdami... farqsiz.

Yo'q, o'g'lim, mening asablarim bolalar yig'isidan ko'ra ularni do'xtirdan qo'rqitib katta qilayotgan, kaltafahm ota-onalaridan ko'proq ado bo'lardil... Ko'rib-eshitib yotardim: kasalxona eshigigacha tinchgina kelgan bolakaylar oq xalat kiyganlarni ko'rishni hamonno dahshat bosib, yig'lamoqqa tutinardi. To ularni muolaja stoliga yotqizib, osma ukolni ulab, dorini mitti vujudchasiga o'tkazib bo'lish-

ketaverardi, buvisining oldiga tushvolib...

\*\*\*

...shanbada osuda tong ottingandim. Yakshanba tunida esa... tanangga uyqudori yuborishgachgina, qo'llarimda ko'zing ilindi. Sen-ku yig'idan to'xtagandim, ammo mening o'pkam to'lib kelardi, nimagadir. Avval seni kravatchangda, keyin onangni yo'lakdan opkelganim o'rindiqda bir amallab uxlatgach, o'zim stulni devorga tirab, qarshingda o'tirib oldim. Soat uchlarda shu ko'yi pinakka ketibman. Kimdir yelkamdan ohista turtardi. Qovoqlarimni zo'rg'a yirdim. Onang mehr ila o'rindiqda yotishimni, buyog'iga o'zi qarashini shivirlardi. O'rindiqqa cho'zilganimcha ertalabki yettiga yaqin turdim. Yo'lakda faroshlar chelaklarini taraqlatar, palatalarda bolalar injiqlik qilar, sanitarlar hovliga suv sepishar... qisqasi, kasalxonada yana bir kun yoyilardi...

\*\*\*

...Pirmazarov ayoli bilan ko'rgani kirdi. Qorinchangni, boshchangni ushlashdi. Zarur bilishgan osmadorilar nomini vrach aytib turdi, ayoli qog'oz parchasiga yozib uzatdi: glyukozalar, "AMIKOS"...

"AMIKOC" — o'ta kuchli vitaminligini, shuning uchun teng yarmini bugun, qolgan yarmini esa ertaga tominga yuborishimizni qat'iy tayinladi vrach. Katta yo'l'dan naridagi mirbozorliklar ochgan dorixonada narxlar ancha arzon, ham dorifurushlari ilmi deyishardi. O'sha yoqqa yo'naldim.

Yuz ming so'mcha pulim qolgandi. Xo'p, glyukoza, shprints, sistema... bular-ku arzon, lekin manov "AMIKOC"i qancha turarkan, bilmasdim. Kasalxonada ikki savol ichimda muz qotadi, doim: nega dorilarning buncha qimmatligi va nima sababdan bemorlarning o'zlari dorilarini sotvolishlarini? Omborda shiftgacha taxlangan dorilarni, shprints, himoya qo'lqoplarini...

larini berishdi: "...lekin bu xotinining yozuvi-ku?.." Dorilarni suvqog'ozga solgach, ja'mi oltmish olti ming so'm bo'lganini aytishdi. Atay kasalxona ichidagi ikki dorixonadan ham surishtirdim, qaytgach. Oltmish sakkiz ming so'm, deyishdi. Gap-so'zlarda jon borga o'xshaydi...

\*\*\*

... "AMIKOC"ni oxirigacha jo'nata olmadik. Iching qisib, yig'lashga tushding. Hamshirani chaqirib keldim. Osmadorini uzdi. Yig'ing uzilmadi lekin. "Qo'shni"larimiz — Muolaja xonasidagilar ham avjga chiqqandi. Kasallik shu qadar tarqayaptimikan?..

Hovliga opchiqdik seni. Orada tushlik qilvolganimizni aytmaganda, yakshanbani hovlida o'tkazdik. Asr vaqlarida kasalxona darvozasi kirib kelayotgan bobongni ko'rib, najot farishtasini ko'rgan-day suyunib ketdik. Bobong seni adl ko'tardi-yu yo'laklar bo'ylab ke-etti. Onang bilan bo'limga qaytarkanmiz, o'rindiqda o'tirgan Pirmazarovga ko'zimiz tushdi. Palataga onangni boraverishini aytib, vrach yoniga cho'kdim...

\*\*\*

— ...biz ertaga qaytmoqchimiz...

— Qolgan ukollar nima bo'ladi?

— Uyda olarmiz...

— Yaxshi, unda...

— Shovqinga chidash qiyin bo'lyapti. Bolalarni aytaman... O'zi qandaydir virus tarqalgan ko'rinadi, respublika bo'yicha? — "Qandaydir" emas, koronavirus tarqalgan! Faqat detskiysi. Bolalar koronavirusi, ya'ni.

— Nima, o'g'lim ham...

— Ha!..

— Isitma, ichketish... Shuni kimidi, bari?

— Shunday. Ana, o'n besh kunlab issiq tushmay yotgan bolalar bor, bo'limga...

— Davosi bormi, buni?

— Bor, lekin qachon tu-

shadi issiq, necha kunda... Aniq aytolmaymiz oldindan.

— Tushunarli...

\*\*\*

...dushanba. Saharxo'rlikdan keyin bir tashqarilab kel-sam, onang tugunlarni tugub qo'yibdi. Pirmazarov bilan xo'shlashgani bordik. Ertalabdan boshi shishib, bolalarni tekshirardi. Qog'ozchaga dori yozib berdi. Senga uyda ikki mahal ichirishimni aytdi. Yuksak minnatdorlik va ehti-ron hissida qo'lini qattiq qis-dim.

Chap kafting ortiga sanchilgan ignalarni oldirish uchun Muolaja xonasiga opkirdik seni. Hamshira lekoplastrni yecharkan, shaftolining po'stini archiyotgandek shilib-shilib oldirdi. Ignalarniyam qo'pol sug'urgani kasriga qon sizib chiqdi tomingdan. Yig'lama-ding ham, baqirmading ham... Silkinib tushding ammo. Ko'zlaring katta-katta ochildi og'riqdan. Hayron qarab turarding hamshiraga. U esa, moltabiatligining namoyishini baralla davom ettirganicha, yerga tushib ketgan spirtli paxta tutamini olib, sellofan bilan bog'lab qo'ydi qo'limga. Yetmaganday vadvang valdi-rardi, xonadagi xalatdoshiga... Sening beg'ubor nigohlaring-dagi hayrat hanuz quyuuq edi...

Nega o'shanda yig'lama-ding, o'g'lim? Joningni og'rit-di-ku, axir!.. Balki onamning qo'llaridaman, otamning yonginasida, meni hech kimsaga xafa qildirib qo'yishmaydi, deb o'ylabmiding? Yoki oppoq kiyinganlardan qora qiliq kutma-ganmiding?..

O'g'lim, o'shanda sening jim turganingdan qanchalar hayratda bo'lsam, o'zimning "sukut"imdan shunchalar nafratdaman!..

\*\*\*

...qaytayapmiz: oldda seni mahkam quchgan men va ort-da tugun-to'rvallarni ko'targan onang. Bolalar bo'limging ochiq derazalaridan olashovur

oqadi tashqariga. Qarama-sam-da, quloqlarimga kelib urilardi: qay bir ayol bolasini aldayapti, qay biridir do'q qilmoqda, yana qaysi qarq'ash-u boz boshqasi avrash bilan band... Yo'q, to ayollarimiz bolalari tarbiyasida alla o'rni-da — analgin-dimedrolni, ertak aytish o'rmi — so'rg'ich so'rdirishni, kitob o'qib berish o'rmi — sun'iy sut tayyorlab ichirishni... ma'qul topaverarkan, bu millat onalaridan Astrid Lingren, Joanna Rouling, Stefani Mayer... chiqmaydi!.. Bular ham ONA bo'lgan, o'g'lim. Oddiygina uy bekasi edilar: biri — shved, biri — ingliz, biri — amerikalik ayollaridi. Bittasi og'ir xastalikka chalingan qizalog'iga tunlari to'qib, aytib chiqqan ertaklari keyinchalik dunyo bolalar adabiyotining durdonalariga do'ndi (masalan: "Mittivoy va Karlson" ertagi juda mashhur). Bittasi, shunchaki, Edinburg vokzalida kelishi to'rt soatga kechikkan poyezdini kuta-kuta, yon daf-tariga yozganlarini, eng avvalo, sakkiz yashar qizchasiga o'qit-tirdi va unga ma'qul tushgani-ni bilgach, kitob qilish uchun nashriyotga berdi ("Harry Potter sarguzashtlari"). Bittasining esa zo'g'or yumushlaridan ortib, yozgan romani qo'lyozma-sini dastlab o'qib chiqqan oila a'zolari kutilmagan e'tiroflarini aytishgan ("Sumerki yoki zulmat ostonasidagi muhabbat")...

Ha, o'g'lim, ona bo'lish — bola tug'ish degani emas, faqat!..

\*\*\*

...ikki-uch kungacha mi-yamdagi bolalar yig'isi tin-madi. Qayoqqa bormay — ishdamanmi, ko'chadami, uydami... — navrastalarning big'illab dodlashi eshitilaverdi. Sen emasmi deya garangsisib qolaman...

O'g'lim...

Yana kula boshlaganingdan xursandman!..



Yoshlar ma'naviy hayotidagi eng katta ijobiy o'zgarishlardan biri ijodkorlarining maktablarga birlashtirilishi bo'ldi. Bu o'quvchi yoshlarni ijodga, adabiyotga yanada yaqinlashtirdi. O'tgan qisqa davr ichida maktablarda chinakam ijodiy muhit paydo bo'ldi. Ana shunday maktablardan biri Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi 24-umumta'lim maktabidir.

Bu maktabda iste'dodli ijodkor, yozuvchi Bayram Ali (Qo'ldoshev) yoshlar adabiyot sirlarini o'rgatmoqda. Quyida maktabda tashkil etilgan "Yog'du" adabiy-badiiy to'garagi a'zolarining ijod namunalari berilmoqda. Umid qilamizki, bu o'quvchilar kelgusida katta ijodkorlar safidan o'rin olib, milliy adabiyotimiz, ma'naviy hayotimizga xizmat qiladi.

Tahririyat

## Sog'inch

Ta'il boshlanishiga yetti kun qoldi. Roziya har bir kuni sanab yuribdi. Chunki u ta'il boshlangach, tog'dagi Gulxadicha buvisinikiga mehmonga boradi.

Gulxadicha buvisining o'g'li farzandi yo'q. Faqat ikki qizi bor. Katta qizi Roziyaning onasi, kichik qizi Zulxumor xolasi. Onasi shaharda... Zulxumor xolasi esa uzoq qishloqqa turmushga chiqib ketgan. Buvisi yolg'iz o'zi yashaydi.

Roziyalar buvisini bir necha marta o'zlari bilan shaharga olib ketmoqchi bo'lishgan. Lekin u ko'nmagan. Buvisi cholidan qolgan uyini tashlab ketishni istamaydi. Hatto biror

joyga mehmonga borsa ham, kechasi uyib qolmay, o'z uyiga shoshadi.

Roziya buvisining uyiga yetguncha atrofini tomosha qilib bordi.

Mashinadan tushib darvozani ochishi bilan ichkaridan buvisi chiqib keldi. Roziyani juda kutgan bo'lsa kerak, birdan uni quchoqlab oldi. Keyin yana darvozaga tikilib qoldi.

— Onang kelmadimi? — deb so'radi.

— Bir haftadan keyin keladi, — tushuntirdi Roziya.

Bu gapni eshitib, buvisining ko'ngli biron joyiga tushganday bo'ldi.

Roziya kelishi bilan hamma yoqni supu-

rib-sidirishga kirishdi. Buvisi esa o'zining charchatib qo'yma, qo'shnimiz Inobat o'zi supurib beradi, dedi. Lekin Roziya buvisiga ko'proq yordam berishni istardi. Bir kuni Roziya buvisining har doimgidan judayam kamgap, g'amgin ekanini sezib qoldi. Qarasa, buvisi tez-tez darvozaga tikilib o'ylanib qoladi.

Nihoyat, oradan bir hafta o'tib Roziyaning onasi keldi. O'zi bilan birga qo'shni qishloqdagi Oynisa xolasini ham olib keldi. O'sha kuni buvisi juda xursand bo'ldi. Barchasi uch-to'rt kun qolib mehmon bo'lishdi.

Mehmonlar ketadigan kun kelganda buvisi qizidan Roziyani ham birga olib ketishni so'radi. Oyisi nabirangizning hali maktabi ochilmaydi, siz bilan qolaversin, degandi, buvisi ko'nmadi. Roziya buvim bizdan xafamikan, desa, unday tuyilmadi. Yuzy yorishib turganidan u bugun har kungidan ko'proq xursandga o'xshardi.

Roziya oyisi bilan birga shaharga qaytishga majbur bo'ldi. Uyga yetishlari bilan Zulxumor xolasi telefon qildi. Onasi xolasining telefonda aytgan gapini eshitib, yuzi oqarib keldi. Ko'zlaridan yosh oqib, qo'lidagi telefonini tushirib yubordi. Roziya nima gapligini so'raganda, u yig'lagancha "Qizim, buving endi yo'q..." dedi.

Rahimova RUHSHONA,  
7-sinf o'quvchisi

## Sirli tepaliklar

Yurtimizda tarixiy maskanlar juda ko'p. Turli obidalar, saroylar, minoralar va yana tepaliklar. Balki hayron bo'layotgandirsiz, tepalik qanaqasiga tarixiy maskan bo'lishi mumkin, deb? Aslida viloyatimizda tarixiy tepaliklarni ko'plab uchratish mumkin va ularning har biri o'z tarixiga ega. Masalan Yo'litepa, Qo'shtepa, Niyoztepa, hamda bugun meh sizga gapirib bermoqchi bo'layotgan Qamay tepa...

Qamay tepa bizning qishloqimiz yaqinida joylashgan. Hatto u uyimizdan ko'rinib turadi. O'zim bu tepalikka mol boqish yo do'stlarim bilan o'ynash uchun ko'p borganman. Qamay tepa haqida rosa ko'p afsona va rivoyatlarni eshitganim uchun, har gal uning yoniga borganimda tepalichni sinchiklab kuzatishga harakat qilaman.

Shunda tepalik menga go'yo o'tmishdan so'zlayotganday, juda qadimda yashab o'tgan ota-bobalarimizdan darak berayotganday bo'lib tuyiladi.

Qamay tepa ko'p yillik tarixga ega. Lekin u tepalikka aylanib qolishdan oldin nima bo'lganligi haqida aniq bir dalil yo ma'lumot yo'q. U haqida kimdir "Qamay tepa oldin saroy bo'lgan" desa, yana kimdir, "U qadimda Amir Temurning maxfiy g'ori bo'lgan" deydi. Qamay tepani qadimda saroy bo'lgan, deb biladigan odamlar oldin mana shu atrofda Qamar bilan Samar degan ikki og'a-ini yashagan. To'ng'ich farzand Qamar shu yerda o'ziga saroy qurdirgan, Samar esa Samarqandga ko'chib ketgan. Qamarining qurgan saroyi keyinchalik qulab tushib, mana shu tepalikka aylanib qolgan, deb hikoya qiladilar.

Qamay tepani Amir

Temurning nomiga bog'laydigan odamlarning aytadigan afsonalari esa juda qisqa. Ular bu yerga Amir Temur o'z oltinlarini yashirgan va unda qulfga o'xshash katta narsa bor. Qulfini Amir Temurdan boshqa hech kim buray olmasin, deb duo o'qilgan, deyishadi. Bu gap ancha ishonchsiz bo'lsa-da, lekin men tepalikning bag'rida kattakon qulfga o'xshab ketadigan uchburchak shaklni ko'rganman. Kim bilsin, balki aynan o'sha shaklga qarab odamlar bu rivoyatni to'g'ib chiqarishgandir...

Men bu tepalik haqida maktabimizda tashkil qilingan "Yog'du" nomli adabiy-badiiy to'garagimizning rahbaridan so'radim. To'garagimiz rahbari o'tmishda urushlar, bir-birining yurti ustiga qo'shin tortib bostirib borishlar ko'p bo'lgan. Mana shunday paytlarda maxsus odamlar tepalik ustida katta

olov yoqib, o'z qavmdoshlarini dushman hujumidan oghlantirishgan. Qamay tepaga o'xshash tepaliklar shuning uchun ataylab yasalgan. "Qamay" so'zining kelib chiqishi shu tepalik yaqinida yashagan qavmning bayrog'iga tushirilgan "Humo" rasmi bilan bog'liq. Ya'ni, "Xumoy" so'zining, "Qubay" deb qipchoqcha talaffuz qilinishi natijasi, degan taxmini aytdilar.

Shunda men o'ylab goldim. Demak bu tepaliklar hali texnika vositalari ixtiro qilinmagan qadimiy davrning "telefon"lari bo'lgan ekan-da? Lekin ular odamlarning bir-biriga xabar jo'natishiga xizmat qilgan oddiy "telefon" bo'lgan bo'lsa, bu tepaliklar nimaga burchal burchal ko'p afsona va rivoyatlar to'g'ib chiqarilgan? Men qachondir ulg'ayib bu tepaliklarning sirli tarixi bilan jiddiy shug'ullanishni, ilmiy izlanishlar olib borishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

Abdunazar MAVLONOV,  
5-sinf o'quvchisi

## Muzqaymoqning gapi

Men judayam shirinman,  
Bolalarga yoqaman.  
Nomim o'zing o'ylab top,  
Qand, qaymoqdan bo'lganman?  
Laqabim ham kam emas,  
"Kevi", "Grand", "Mofasi"....  
Turdoشلardan eng zo'ri,  
Men bo'laman, akasi!

Marhabo BEKNAZAROVA,  
5-sinf o'quvchisi

## Xayolparast

Uyda qolib bir bola,  
O'tirardi o'y sura.  
Bir mahal kelsa o'g'ri,  
Chiqib bordi to'p-to'g'ri.

— Ota-onang qayerda?..  
— Ketishgandi sayrga,  
Bugun kechirasizlar,  
Ertaga kelasizlar.

Sevinch KELDIYOROVA,  
6-sinf o'quvchisi

## Til

Til bilmagan bir odam,  
O'zga yurtga boribdi.  
Soqovday hech kim bilan,  
Gaplasholmay qolibdi.  
Och-nahor uyga qaytib,  
Rosa afsus etibdi.  
Til bilish kerakligin,  
Shunda anglab yetibdi.  
Til bilmagan odamlar,  
Telbadir, yo anqovdir.  
Ovozi bo'lsa hamki,  
O'zga yurtda soqovdir!

Shahzoda ESHEMIROVA,  
6-sinf o'quvchisi

## Baliq ovida

Qoplab olgan sukunat,  
Kun biram liq.  
Ko'rinmoqda suv osti,  
Daryo tip-tiniq.

Qarmog'imning uchini,  
Tinmay tebratib.  
Chuvalchangni baliqcha,  
Ketar o'ynatib.

Dilnoza ASHUROVA,  
6-sinf o'quvchisi

## O'zbekistonim

Bog'laring vigo'ri, chiroyli erur,  
Bag'ingni to'ldirgan ikki daryong bor.  
Bog'ingda mevalar shirin-u shakar,  
Neki ne'mating bor, bari betakror.  
Olamga alishmam, go'zal bo'stionim,  
Tanimda jonimsan — O'zbekistonim.

Seni jannatlarga g'iyos afishar,  
Osmoning musaifo, yering unimdor.  
Sha'ningga sho'irlar qo'shiq bitishar —  
Ohangi samoviy, gardsiz, beg'ubor...  
Olamga alishmam, go'zal bo'stionim,  
Tanimda jonimsan — O'zbekistonim.

Sadoqat ELMURODOVA,  
7-sinf o'quvchisi

